

EKSTREMAL TURIZMNI O'RGANILISH VA TATBIQ ETISH ASOSLARI

Xojimurod Xasanov To'ychiboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston hududida ekstremal turizmni savuvchi saayyohlar uchun tashkil etilgan eng asosiy joylar haqida ma'lumotlar beriladi. Mamlakatda boshqa turizm sohari kabi ekstremal turizm ham rivojlanmoqda.*

Kalit so'z: *«Buyuk Ipak yo'li», Yusufxona, rope-jumping, Qorsaroy, aeronavtika.*

FUNDAMENTALS OF STUDYING AND IMPLEMENTING EXTREME TOURISM

KHojimurod KHasanov Tuychiboy ugli
Student of Chirchik State Pedagogical University

Abstract: *The article provides information on the main topics organized for tourists seeking extreme tourism in Uzbekistan. Extreme tourism is developing in the country, like other tourism sectors.*

Key words: *"Great Silk Road", Yusufkhana, rope-jumping, Korsaroy, aeronautics.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 12-noyabrdagi «2006-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish haqida» gi qarorlarining qabul qilinishi respublika hukumatida ushbu sohaga katta e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi. O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. O'zbekistonni sharq va g'arbni bog'lab turuvchi «Buyuk Ipak yo'li» dagi belbog' sifatida yaxshi bilamiz. Turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa – O'zbekistonning tabiiy iqlimiy, rekreatsion, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy madaniy salohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan yuqori rentabelli turistlik tarmoqni yaratishdan iborat.

Ekstremal turizm nafaqat sayyoxlik biznesining istiqbolli turlaridan biri bo'lib, u ko'proq odamlarni o'ziga tortadi. Ekstremal turizm uchun o'rganilmagan yangi joylar paydo bo'lmoqda, turizmning yangi turlari paydo bo'lishi buning aynan dalilidir. Ekstremal turizm nafaqat yuqori sifatlibalki uning barcha turlari muayyan malaka, tegishli jihozlar, tajriba va yuqori professionallikni talab qiladi. Paraplanizm, deltaplanerizm, aeronavtika, kichik aviatsiya, tog' turizmi,

veloturizm, skayranning, mototurizm, avtoturizm kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir. Chorvoq suv ombori bilan chegaradosh "Yusufxona" loylashgan paradeltadrom o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, hududda aeronavtika, suv, tog', piyoda yurish kabi turizmning faol turlarini rivojlantirish uchun iqlimiy sharoitlar mavjud. Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxasislarning ma'lumotlariga lo'ra, bugungi kunda ekstremal turizmning rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllanmoqda. So'ngi yillarda Qoraqalpog'istonda ekstremal turizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar oluib borilmoqda. Ammo, bu boradagi tahlillar ekstremal turizm yo'nalishida tabiatni, geotizimlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan, zarur bo'lganda birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish malakasiga ega bo'lgan bakalavr kadrlar tayyorlash dolzarbligini ko'rsatmoqda.

O'tgan yillar mobaynida ayniqsa Toshkent viloyatida ommalashib borayotgan "zip-line"larni misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Bu ham ekstremal turizm sohasidagi qadamlardan biridir.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida balandligi 150 metr bo'lgan osma ko'prik foydalanishga topshirilishi, qo'shimchasiga ekstremal turizmni sevuvchilar uchun "rope-jumping" yani, balandlikdan sakrash atraksionlarining ochilishi kelayotgan mehmonlarga hush kelmoqda. Ma'lum bo'lishicha, ko'prikning uzunligi 305 metrni tashkil qiladi. U bir vaqtning o'zida 600 kishini ko'tara oladi.

Bu kabi arqondan sakrash atraksionlari Angrenda ham tasklil erilgan (Yangiobod tur baza).

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan "Amirsoy" tog'-chang'i kurortida qishki sport turlarining tog'-chang'i yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tishi ham mamlakatda tog'-chang'i va souvbording turlari rivojlanib borayotganini aytsa bo'ladi.

Asosiy tog' chang'I zonalar quyidagilardir:

- Chimgan;
- Beldersay;
- Amirsoy;
- Yangiobod.

Dunyoda mashhur ekstremal turizm misollari:

- Chernobil sayohatlari, Ukraina;
- O'lim yo'li, Boliviya;
- Sak Actun, Meksika;
- Qaldirg'ochlar g'origa sayohatlar, Meksika.

Ekstremal turizmning qismlaridan biri bolgan avtomobil turizmi ham O'zbekistonda tashkil etilgan. Misol tariqasida Toshkent viloyati Piskent tumanidagi aylana halqa yo'lda o'tkaziladigan poygalarni aytish mumkin.

Bunday ekstremal sport turizmi maskanlari deyarli hamma viloyatlarda tshkil etilgan misol uchun Namangan viloyatining Pop tumanida "Qorsaroy" dam olish maskani turistlarga xizmat ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. <http://genderi.org/mavzu-ozbekistonda-ekstremal-turizmni-rivojlantirish-imkoniyat.html>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekstremal_turizm
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/turizmning-ekstremal-turlari-bukleti>